

**Qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha
SHARTNOMA**

Nukus sh.

652-son

2022 yil “01” 28

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘riqlash boshqarmasi nomidan nizom asosida faoliyat yurituvchi M.I.Kaljanov (keyingi o‘rinlarda «Ijrochi»deb yuritiladi) bir tomonidan CHimboy tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi Bosh vrachi B.Rajapov (keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) ikkinchi tomonidan, birgalikda «Tomonlar» deb yuritiladi, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. Shartnoma predmeti

1. Ijrochi Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmati, harbiylashtirilgan va soqchilik qo‘riqlashi ko‘rinishida texnik qo‘riqlash markazidan (keyingi o‘rinlarda TQM deb yuritiladi) foydalangan holda Buyurtmachining mulkini qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatish majburiyatini, Buyurtmachi esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o‘z vaqtida ko‘rsatilgan xizmat uchun to‘lovlanri amalga oshirish majburiyatini oladi.

2-bob. Umumiy shartlar

2. Buyurtmachi CHimboy tumani Begler-begi ko‘chasi raqamsiz uyda joylashgan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi binosida joylashgan dorixonasi imoratini 8 (sakkiz) soat dam olish kunisiz (**soat 22:00 dan 06:00 gacha**) o‘rnatilgan qo‘riqlash signalizatsiyasi **orqali TQMga ulangan holda** (keyingi o‘rinlarda ob’yekt deb yuritiladi) Ijrochiga topshiradi, Ijrochi qabul qiladi.

3. Obyektning qo‘riqlash chegaralari (binolari, qurilmalari), postlarining (yo‘nalishlari) joylashuvi chizma-rejada ko‘rsatiladi va mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Obyektdagi kirish-chiqish, ichki obyekt rejimi Buyurtmachi tomonidan tasdiqlanadigan kirish-chiqish va ichki ob’ekt rejimini tashkil etish yo‘riqnomasiga muvofiq amalga oshiriladi hamda mazkur SHartnomaga ilova qilinib uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. Obyektni texnik qo‘riqlash vositalari bilan jihozlash va ta’mirlash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi, texnik qo‘riqlash vositalari Ijrochining aybi bilan ishdan chiqqan hollar bundan mustasno. Obyektni yong‘indan qo‘riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur Shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

6. Obyektni qo‘riqlashda Buyurtmachi bilan kelishilgan holda soqchi itlardan foydalanish mumkin.

7. Mazkur Shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, obyektda 10 ishkuni ichida Milliy gvardiya xizmati qo‘riqlash turi yo‘lga qo‘yiladi.

Obyektda soqchilik qo‘riqlash turi va harbiylashtirilgan qo‘riqlash obyektga 10 ish kuni ichida yo‘lga qo‘yiladi.

8. Buyurtmachi ko‘zdan kechirish dalolatnomasida ko‘rsatilgan talablarni bajarmaganda Ijrochi qo‘yilmaydi, qo‘yilgan Ijrochi esa chaqirib olinadi.

3-bob. To‘lovlanri amalga oshirish

9. Mazkur Shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:

TQM orqali qo‘riqlash va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bir oyga : **1 245 762,00 so‘mni** (2022 йилнинг 1-choragi uchun ya‘ni 3 oyga 3 737 286,00 so‘mni) tashkil qiladi.